ERTAKLARNING MAVZUIY TURLARIDA BO‘RI OBRAZINING O‘RNI VA VAZIFALARI

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Psixologiya fakulteti, Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi
nafisateshaboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklarining mavzuiy turlarida bo‘ri obrazining o‘rni, badiiy-estetik vazifalari va poetik talqini tadqiq etiladi. Xalq ertaklarining hayvonlar haqidagi, sehrli-fantastik hamda maishiy-hayotiy turlarida bo‘ri obrazining o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Sehrli-fantastik ertaklarda bo‘rining g‘ayritabiiy qobiliyatlari, inson qiyofasiga kirishi, gapirishi, qahramonga yordam berishi va epik homiy sifatidagi funksiyasi ochib beriladi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda esa bo‘ri obrazi totemistik va majoziy qarashlar bilan bog‘liq holda, ko‘pincha ochko‘zlik, zo‘ravonlik, nodonlik va qonxo‘rlik kabi salbiy xususiyatlar timsoli sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Maishiy-hayotiy ertaklarda bo‘rining real hayotiy mazmundagi obrazi tahlil qilinadi. Shuningdek, bo‘ri obrazining xalq bolalar o‘yinlari va afsonalaridagi talqini ham yoritilib, uning folklordagi qadimiy, an’anaviy va ko‘p funksional obrazlardan biri ekanligi asoslanadi. Maqolada bo‘ri obrazining turli janr va syujetlardagi o‘zgaruvchan semantik xususiyatlari uning xalqning mifologik, ijtimoiy va axloqiy qarashlarini ifodalashdagi ahamiyatini belgilashi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq ertaklari, bo‘ri obrazi, mavzuiy turlar, sehrli-fantastik ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy-hayotiy ertaklar, poetik talqin, badiiy-estetik vazifa, epik homiy, totemizm, majoziy obraz, mifologik qarashlar, xalq folklori.

Xalq ertaklari ifodalayotgan voqeligining sajiyasi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlar talqini, badiiy tili va uslubi, voqelikni aks ettirish tarzi, syujet va kompozitsiyasi qurilishi, bunda xayoliy va hayotiy uydirmaning tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra tasnif qilinadi. O‘zbek ertakshunosi M.Afzalov xalq ertaklarining uch ichki xilga egaligini e’tirof etadi: Bularni: *a) hayvonlar haqidagi ertaklar; b) sehrli-fantastik ertaklar va v) hayotiy – satirik ertaklar* tarzida ifodalaydi.[2]

O‘zbek xalq ertaklarining bu har bir guruhi nafaqat mazmun-mohiyati va personajlarining ifodalanishi jihatidan, balki kompozitsion qurilishidagi o‘ziga xosligi bilan ham o‘zaro farqlanib turadi.

Sehrli-fantastik tipdagi ertaklarda bo‘ri obrazi sirli tusda, g‘ayrioddiy muhitda, sehr-jodu va mo‘zija obyekti sifatida, g‘ayritabiiy personaj qiyofasida ko‘rsatiladi. Cho‘loq, ammo uchar bo‘ri shulardan biridir. U harakatlanadigan makon va zamon tilsimli, sirli bo‘ladi. Sirli bo‘ri uchish xususiyatiga ega qilib ko‘rsatiladi. Bir tusdan boshqa tusga evrila biladi. U insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadi.

Sehrli-fantastik ertaklarda bo‘ri g‘ayritabiiy personajlar – demonologik obrazlar qatorida ishtirok etadi. U sehr-jodu kuchiga ega, kerakli narsa-hodisalarni,

[2] Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964. – Б.21.

jonivorlarni istagan paytda o‘z sehr-u jodusi bilan bordan yo‘q, yo‘qdan bor qila biladi, ularni o‘zi xohlagan qiyofaga sola oladi. Bunday xususiyat Xizr, Simurg‘, yalmog‘iz kampir va ajdar (uch boshli, yetti boshli) kabi mifologik-personajlarga ham xosligi ma’lum. Biroq Xizr, Simurg‘ personajlari hamisha homiy sifatida ijobiy mohiyatga ega bo‘lsa, bo‘ri goh homiy sifatida ijobiy fazilatlar sohibi, goh o‘ta shafqatsiz, har qanday razillikdan qaytmaydigan, qonxo‘rlikdan huzurlanadigan salbiy personaj sifatida gavdalantiriladi.

Sehrli-fantastik ertaklarda g‘aroyib bo‘ri sehr-jodu yordamida turli shakllarga kiradi, o‘z qiyofasini o‘zgartirish – evrilish imkoniga ega bo‘ladi. Yana sehrli-fantastik ertaklarda bo‘ri bosh qahramon – inson qatorida tasvirlanadi. Hatto ertak uning nomi bilan ataladi. U zarur o‘rinda insonga aql o‘rgatadi, yo‘l-yo‘riq, maslahat va ko‘rsatmalar beradi. Shuningdek, sehrli-fantastik ertaklarda bo‘rining o‘ziga xosligi uning alohida sifatlovchi bilan atalishida ham ko‘rinadi: cho‘loq bo‘ri, och bo‘ri kabi.

Bo‘ri yo bosh qahramon, yo epik ko‘makchi sifatida sehrli-fantastik ertaklarning boshlanishidan to oxirigacha xayoliy uydirma qobig‘ida tasvirlanadi.

Ma’lumki, sehrli-fantastik ertaklarning syujeti sarguzasht voqealar tizimidan iborat bo‘lib, voqealar rivojida tilsim, xayoliy uydirma muhim o‘rin tutadi. Ba’zan ularda bo‘rining uch, qirq singari sehrli raqamlar bilan bog‘lanishi kuzatiladi. Masalan, “Cho‘loq bo‘ri” ertagida bo‘ri uch yo‘ldan biri – “borsa kelmas” oldida turgan uch aka-ukaning kenjasiga duch kelib, unga epik homiylik qiladi.

“Eshak, xo‘roz va qirq bo‘ri” deb nomlangan ertaklardan birida, tabiiyki, sehrli raqamlarning qo‘llanishi bo‘ri obrazining arxetipligini belgilovchi muhim badiiy unsurlardan hisoblanadi.

Umuman aytganda, dunyo xalqlarining sehrli-fantastik ertaklarida bo‘ri g‘aroyib jonivor obrazi sifatida gavdalantirilib, u bosh qahramonga zarur paytida yordamga kelgan zoomorf ko‘makchi sifatida talqin qilinadi. Bungacha bosh qahramon unga nimadir yordam berishi motivi keltiriladi. Masalan, “Cho‘loq bo‘ri” ertagida qahramon o‘zining yeb turgan nonidan bo‘riga beradi. Qahramonning shu tantiligiga javoban bo‘ri kerakli vaqtda o‘ziga non bergan yigit – kenjani qo‘llab-quvvatlab, yordamga muhtoj paytida unga ko‘maklashadi.

Ba’zi ertaklarda bosh qahramonga bo‘ri o‘z yolidan beradi. Agar qahramon uning yolidan tutatsa, bo‘ri ko‘z ochib-yumguncha uning oldida hozir bo‘lib, xizmatiga shay turadi. Bo‘ri va qahramon birgalikda harakat qilib, biror-bir sehrli narsani qo‘lga kiritadilar yoki qahramonning sevgan yorini sehrdan ochadilar, yoxud sirli o‘lkalardan uni olib keladilar. Masalan, o‘zbek xalqining “Bahodir va ajdaho” ertagida sher, shoqol, bo‘ri bolaga ko‘rsatgan beg‘araz yordami uchun bittadan o‘z tuklaridan belgi yulib beradilar. Bola uni yordamga muhtoj bo‘lganida tutatadi. Bu jonivorlar unga yordam ko‘mak uchun yetib kelishadi.[15]

Sehrli-fantastik ertaklarda bo‘rining asosiy g‘aroyib xususiyatlaridan biri ucha olishi va uzoqni yaqin qilishidir. Yana bunday ertaklarda bo‘rining asosiy g‘aroyib xususiyatlaridan biri o‘z tusini o‘zgartira olishi, ya’ni evrila bilishidir. Bo‘ri xuddi uchar ot kabi qanot yoyib, to‘rt oylik yo‘lni to‘rt sakraganda, sakkiz oylik

[15] Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. V-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б.8.

masofani sakkiz sakraganda, ya’ni qahramon ko‘zini yumib ochgancha bosib o‘tadi. Bundan tashqari, yana u insonday gapira oladi. Insonga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Bularga yuqorida “Cho‘loq bo‘ri” ertagidan misollar keltirib o‘tdik.

Xullas, shu tarzda bo‘ri g‘aroyib jonivor obrazida gavdalantiriladi. Qahramon sehrli bo‘ri yordamida ajoyib, tilsimli predmetlarni qo‘lga kiritib, murod-maqsadiga erishadi.

Ertaklarda bo‘rining inson kabi gapirishi va insonga aqlli maslahatlar berishi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishi hamda sirli tarzda paydo bo‘lib, yana sirli tarzda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi uning “epik homiy” sifatidagi qiyofasini belgilaydi.

Marina Warner “No Go the Bogeyman” (1998) asarida bu haqda yozar ekan, bo‘rining gapirishi, reja tuzishi, yolg‘on so‘zlashi – bu real hayotdagi manipulyatorlarning soddalashtirilgan modeli bo‘lib, ertaklarda xavfli ijtimoiy rollar bilan tanishish imkonini berishini ta’kidlaydi.[16]

Sehrli ertaklarda bo‘rining funksional roli – bu arxetipik personajlar orqali insoniy qadriyatlarni, ijtimoiy me’yorlarni va axloqiy saboqlarni yetkazuvchi xalq ijodining universal shaklidir. Bu janrda bo‘rining funksiyasi, odatda, yovuz kuch, sinov vositasi va ba’zida o‘zgarish katalizatori sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘ri obrazi, xususan, **hayvonlar haqidagi ertaklar**ning bosh obrazlaridan biridir. Uning paydo bo‘lishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo‘lgan. Bunday ertaklarda bo‘ri ko‘pincha yo totem, yo kult darajasidagi yetakchi personajlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha bo‘ri insonlar qiyofasida tasavvur etilib, badiiy jonlantirilishi asosida ham u bilan bog‘liq totemistik qarashlar yotadi.

Bo‘ri obrazi inson qiyofasida aks ettirilgan ertaklar majoziy ertaklar sirasiga kiritiladi. Ularning syujetida bo‘ri inson obraziga qaraganda oldingi o‘ringa chiqadi. Insonning ma’naviy kamchiliklari bo‘riga ko‘chirilib, majoz (allegoriya) san’ati orqali tasvirlanadi. Bunday ertaklarda voqelikka inson aralashmaydi.

Bo‘rining salbiy ma’noda talqin etilishiga hukmron va mazlum sinflar paydo bo‘lishi, ular o‘rtasidagi munosabatlarning g‘oyaviy jihatdan keskinlashuvi ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, insonning inson tomonidan qadrsizlantirilishi, unga nisbatan yovuzlik qilinishi, yomon va yovuz kimsalarni, ularning jabr-zulmini qonxo‘r, yirtqich, ochko‘z hayvonlar – sher, yo‘lbars, arslon, ayiq, bo‘ri, tulki va boshqalarga o‘xshatishga olib kelgan. Bunda ko‘pincha bo‘ri obrazi o‘zidan ancha kuchsiz, ojiz qo‘y, echki kabi uy hayvonlariga zid qilib olinib, uning zulmkorligi fosh etilgan. Shu asosda jamiyatdagi ezuvchi va eziluvchi sinf vakillari o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning mohiyatini ochib berish ham ko‘zda tutilgan. Bunda bo‘ri obrazi o‘z ma’nosida emas, ko‘chma ma’nodagi personaj sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunisi borki, sehrli va hayvonlar haqidagi ertaklarning har ikkalasida ham bo‘ri xuddi insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadi, ya’ni odamlar kabi gapiradi, o‘y-xayol so‘radi, qo‘shiq kuylaydi.

Shunday qilib, ertaklarning doimiy, majoziy personajlaridan biri bo‘lgan bo‘ri obrazi o‘ziga xos fe’l-atvori bilan ertak tarkibida ma’lum estetik vazifani bajarib,

[16] Warner, 1998. – P. 97.

muayyan g‘oyaviy maqsadni ochishga xizmat qilib keladi. Jumladan, bo‘ri ko‘pincha laqma, aqli kalta, nodon, zo‘ravon saroy amaldorlari qiyofasida ham tasvirlanadi. U faqat qornini, nafsini o‘ylagani uchun ko‘p pand yeydi, noqulay vaziyatlarga (masalan, qopqonga yoki ichi cho‘g‘ga to‘ldirilgan chuqur o‘raga) tushib qoladi.

O‘zbek xalq ertaklarining boshlanmasida ko‘pincha bo‘ri bakovul ekani ta’kidlanadi. Masalan, “Tulki bilan tovus” ertagi boshlanmasida shunday deyiladi: “Ertagi-yo ertagi, echkilarning bo‘rtagi, qirg‘ovul qizil ekan, quyrug‘i uzun ekan, ko‘k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, ola qarg‘a azonchi, qora qarg‘a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to‘rg‘ay to‘qimchi ekan, **bo‘ri bakovul ekan,** tulki yasovul ekan, **ertagimning** eri bor, **yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo‘ri bor.**

Boshqa boshlanmalarda bo‘ri so‘zi bir marta tilga olinib, uning bakovul bo‘lgani aytilsa, ushbu boshlanmada aytilayotgan ertakning yetti kunlik yeri borligi va shu yetti kunlik yerida dumi kalta bo‘ri borligi aytilmoqda.

Bo‘riga nisbatan bakovul so‘zining ishlatilish sababini aniqlash uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zga berilgan izoh bilan tanishish mumkin. Ot so‘z turkumiga oid bakovul so‘zi eski, tarixiy so‘z bo‘lib, u to‘rt ma’noda qo‘llanadi:

1. Podshoh, xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o‘zi totib ko‘ruvchi mansabdor; bosh oshpaz. Bu lavozim XV asr va undan keyingi davrlarda amal qilgan.

2. Oltin O‘rda xonligida qo‘shinga maosh ulashish, o‘ljalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori mansabdor.

3. Shevada to‘ylarda taom tayyorlovchi oshpaz, pazanda.

4. To‘y va bayram (hayit) munosabati bilan o‘tkaziladigan kurash, poyga, uloq (ko‘pkari) kabi musobaqalarni boshqaruvchi.

Demak, bakovul eng yaxshi yeguliklar va pul bor joyda hozir kishidir. Bo‘rini bakovul deyish orqali, birinchidan, uning shaxslantirgani anglashilsa, ikkinchidan, uning vositasida ochko‘z, g‘alamis kimsalarga majoziy yo‘l bilan kinoya qilingani ko‘rinadi. Xususan, bakovul so‘zi qatnashgan “tayyor oshga bakovul” iborasi orqali tayyorga ayyor, qulay vaziyatdan foydalanib qoluvchi odamga kinoya, piching qilish tushuniladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda bo‘ri obrazi tasvirlanar ekan, uning ovoziga alohida diqqat qaratilgani, “uv” deb ovoz solishiga e’tibor qilingani ham ko‘rinadi. Shunday o‘rinlarda ertakchilar dramatik ijroga kirishib, bo‘riga o‘xshab uvillashgan. Mana shunda ertakning professional darajadagi hayajonli ijrosiga erishilgan. Xususan, ertak tarkibida bo‘ri tilidan keltirilgan she’riy matnlarni kuyga solib ijro qilish orqali ta’sirchanlik oshirilgan.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda bo‘ri obrazi bosh qahramon sifatida ko‘p keltiriladi. Shuning uchun uning nomi ertak sarlavhasidan alohida o‘rin olishi kuzatiladi. Masalan, “Susambil” nomli o‘zbek xalq ertagida bo‘rilar saltanati

(podsholigi) xususida so‘z yuritiladi. Unda bayon etilishicha, Susambilning bir tomoni baland tog‘ bo‘lib, uning bir joyida bir to‘da bo‘ri turar ekan. Bir kuni bo‘rilarning podshosi ularni to‘plab, bazm qilib, ichkilik ichib, kabob qilib yeb o‘tirgan ekan. Shunda bo‘rilarning podshosi uzoqdan haligi eshak bilan ho‘kizni ko‘rib qolibdi: “Uh, bizga barra kabob topildi, huv ana, o‘tlab yuribdi. Uch-to‘rtta bo‘lib borib shularni olib kelinglar, kabob qilib yeymiz”, – debdi. Bo‘rilarning ichida bitta hovliqmasi bor ekan, u shuginaga uch-to‘rt kishining nima keragi borligi, bitta o‘zi borib olib kelishini aytib maqtanibdi. Bo‘rilarning ichida yana bitta hovliqmasi bor ekan. U “Men turganda sen qayoqqa borasan?” – debdi. Bunga u bo‘rining achchig‘i kelibdi: “Meni pisand qilmayapsan, sendan nima kamligim bor?!” – deb bir-ikki daf qilibdi. Shu yerda ikkovi olishib ketibdi. Shunda bo‘rilarning podshosi ikkovi birga borishini buyuribdi. Ularni ko‘rgan ho‘kiz, eshak, xo‘roz, arilar va kalamushlar maslahatlashib, birgalikda kurashibdilar. Bo‘rilar arang qochib qutulibdilar. Bular shu qochganicha podshoning oldiga yetib borishibdi. Bu bo‘rilarning hamma yog‘i yorilgan, qonlari oqqan, ari chaqqan yuzlari shishib, ko‘zlari ko‘rinmaydigan bir ahvolda ekan. Bularning ahvolini ko‘rib, gaplarini eshitib bo‘rilarning podshosi va sheriklari qo‘rqibdi. Hamma bo‘rilar Susambil tog‘ini tashlab qochib, yetti tog‘ning narigi yog‘iga o‘tib ketishibdi.

Ko‘rinadiki, bu ertakda bo‘rilar ochko‘z, qonxo‘r, zulmkor, biroq laqma, ojiz ko‘rinishda talqin etilayotir.

Maishiy-hayotiy ertaklarda bevosita real hayot voqeliklari tasvirlanishi bois ularda bo‘ri o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Bunday ertaklarda real kishilar bosh qahramon qiyofasida gavdalantiriladi va real muhitda harakatlanadi. Masalan, “Yolg‘onchi cho‘pon” ertagida bir cho‘pon kechqurun zerikkanidan ermak axtarib, qishloqdagilarni “Dod, qo‘yimga bo‘ri tegdi” deb aldab chaqirib, odamlarning uyqusini buzadi. Odamlar uning gapiga ishonib keladilar va cho‘ponning aldaganini bilib, undan xafa bo‘ladilar. Ammo kunlarning birida cho‘ponning qo‘ylariga bo‘rilar to‘dasi chindan hujum qiladi. Cho‘pon hammani yordamga chaqirib baqiradi, lekin bu gal qishloq ahli unga ishonmaydi va kelmaydi. Cho‘pon qo‘ylaridan ajralib, xarob bo‘ladi.

Bo‘ri obrazi keyinchalik hayvonlar haqidagi ertaklar asosida hayvonlar haqidagi o‘yinlarga ham ko‘chib o‘tgan. O‘yinlarda bo‘ri obrazi to‘lig‘icha majoziy ma’no kasb etib keladi. Bu xil o‘yinlarda bo‘ri kuchli qiyofada gavdalantiriladi va unga quyon, qo‘zi, uloqcha, g‘oz va boshqalar kuchsiz jonivorlar sifatida zid keltiriladi.

Hayvonlar haqidagi o‘yinlarning syujetiga hayvonlar to‘g‘risidagi ertaklar syujetining katta ta’sir ko‘rsatganini ularning obrazlar tarkibi, syujeti va nomlanishidagi yaqinlik hamda o‘xshashlikdan ham bilsa bo‘ladi. Bu jihatdan “Bo‘ri keldi”, “Bo‘ri va g‘ozlar” kabi xalq bolalar o‘yinlari diqqatni tortadi.[17]

Hayvonlar haqidagi ingliz va o‘zbek bolalar o‘yinlarida bo‘ri obrazi ko‘p uchraydi. Bo‘ri rolini o‘ynovchi bola yakka obraz sifatida harakat qiladi. Ko‘pincha u qochgan bolalarni quvib ushlovchi bo‘ladi.

[17] Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Тошкент: Фан, 2008.

“Bo‘ri keldi” o‘yini mazmuni chorvador xalqning hayoti bilan bog‘liq. Unda bo‘rining ko‘pincha chorvaga xavf solishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Shunday voqelikdan ogoh etuvchi “Bo‘ri keldi” o‘yinida bolalar o‘zlarini suv ichayotgan qo‘ylar yoki echkilar qilib ko‘rsatadilar. Shu payt ularning yoniga birdaniga bo‘ri kelib qoladi va podaga tashlanadi. Bo‘ri qaysi bolani ushlasa, o‘shani o‘z yoniga oladi. Agar u hamma bolani ushlasa, u ona bo‘ladi, ona bo‘lgan bola esa bo‘ri bo‘lib, o‘rin almashinadi.

O‘zbek afsonalarida ham bo‘ri obrazi turli badiiy-estetik vazifalarda talqin topgan.[18] Bu ko‘pincha genesiologik afsonalarda kuzatiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek folklorida bo‘ri obrazi alohida o‘rin tutadi va u turlicha o‘ziga xos badiiy-estetik vazifalarda keng talqin qilinadi. U orqali qadimgi insonlarning hayvonot olamiga munosabati, totemizmga inonchi, e’tiqodi saqlanib qolgani anglashiladi. Ayniqsa, ertaklarda bo‘ri totem ko‘rinishida ham, kult ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Xalq ertaklarining har bir turida bo‘ri obrazi uning mazmuni, tabiatidan kelib chiqib talqin etilishi kuzatiladi. Shuningdek, folklorda uchraydigan mifologik zoonimlardan biri bo‘ri obrazidir. U yo totem, yo kult sifatida qadimgi mifologik qarashlar bilan bog‘liqlikda talqin etiladi. Bo‘ri obrazi qatnashgan ertaklar folklorda alohida o‘rin tutadi va keng tarqalganligi, qadimiyligi, an’anaviyligi jihatidan e’tiborni tortadi. Ular asrlar osha yashab kelib, yozma adabiyotga ham ko‘chgan. Bo‘ri obrazi hayvonot olami bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlarning folklor asarlaridagi badiiy talqinlari qay darajada va qay usulda aks ettirilishi yo‘llarini, poetik fikrning tadrijiy taraqqiyotini, ertaklar ijrosiga xos xususiyatlarni tadqiq etish imkonini berishi bilan muhimdir. Bo‘ri ko‘plab xalqlar adabiyotida goh ijobiy, goh salbiy ma’no tashib keladi. Bo‘ri so‘zi ham yo o‘z ma’nosida, yo ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Folklorning maqol, topishmoq kabi paremik janrlarida ham bo‘ri obrazi keltirilgan. Bo‘ri bilan bog‘liq genesiologik afsonalar ham mavjud. Ayniqsa, ertaklarda, xalq bolalar o‘yinlarida bo‘ri obrazi ko‘p uchraydi. Bo‘ri obrazi ertaklarning barcha mazmuniy (sehrli, hayvonlar haqidagi va maishiy) turlarida qo‘llangan. Ularni ertaklarning kirish, boshlama, tugun, epik sarguzasht va tugallama qismlarida uchratish mumkin. Ko‘pincha sarlavhaga ko‘tarilgani ham ko‘rinadi. Turli tizimli tillarda so‘zlovchi ingliz va o‘zbek asarlarida bo‘ri obrazining turlicha talqini, insonlashtirilishi, odamlarga goh juda yaqin, goh raqib hayvon sifatida talqin etilishi qiyosiy aspektda tadqiq qilinsa, bu obrazning takomilini, bashariyat badiiy-estetik tafakkurining rivojini, ma’naviy-axloqiy negizlarini ochish imkonini berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Афзалов М.И. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964. – 86 б.
2. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 238 б.
3. Bottigheimer R. Fairy tales. A New History. – New York, 2009. – 164 p.
4. Bottigheimer R. Magic tales and fairy tale magic: from Ancient Egypt to the Italian Renaissance. – London, 2014. – 208 p.

[18] Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналари бадиияти. – Тошкент: Фан, 2009.

5. Hartland E.S. Science of fairy tales: Inquiry into the Fairy Mythology. – London: Walter Scott,1892. – 372 p.
6. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. – 155 б.
7. Жалолов Ғ. Эртак ва маросим // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №2. – Б.29-32.
8. Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг спецификаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – 2-сон. – Б.30-33.
9. Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг сюжет ва мотивлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – 5-сон. – Б.36-37.
10. Жумабоев М. Болалар адабиёти ва фольклор. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 216 б.
11. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990 – 304 б.
12. Имомов К. Ўзбек сатирик эртаклари. – Тошкент: Фан, 1974. – 206 б.
13. Имомов К. Эртак // Ўзбек фольклори очерклари. 2-том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.69-70.
14. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 252 б.
15. Имомов К. Ўзбек халқ эртаклари // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.62-96.
16. Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. V-китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 152 б.
17. Uzbek Folk Tales. Soros Foundation. – Kyrgyzstan, 1977. – 227 p.
18. Uzbek Fairies Tales. – Toshkent: Sharq, 2007. – 111 p.
19. Zipes J. Why Fairy Tales Stick. The Evolution and Relevance of a Jenre. – New York: Routeledge, 2007. – 350 p.
20. Zipes J. The Irresistable Fairy Tale– New York: Routeledge, 2007. – 250 p.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Тугалов И.Х.
Старший преподаватель ДжфНУУз имени М.Улугбека

Проблема интереса к изучению русского языка в ВУЗе связывается нами интерактивностью подхода к содержанию и организации изучения предмета, ведущей к активизации мыслительной деятельности студентов.

Интерактивный (“inter”- это взаимный “act” действовать)- означает взаимодействовать, находиться в режиме беседы, диалога с кем- либо. Другими словами, в отличие от активных методов, интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие учеников не только с учителем, но и друг с другом.(1)

При изучении русского языка значительна роль интерактивных методов.